



2019 YIL YANVAR-IYUL OYLARIDA ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI

(dastlabki ma'lumotlar)

2019 yil yanvar-iyul

RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **18222,4 mlrd.so'mni** ;
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi **14392,3 mlrd. so'mni** ;
- Iste'mol tovarlarning ja'mi sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi **79,0 %** ni
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi **22,1%** ni tashkil etdi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyul oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan **18222,4** mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan .

Mahsulotlar ishlab chiqarishning eng katta hajmi ishlab chiqaradigan (qayta ishlaydigan) korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilga nisbatan **120,7 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **97,6** foizni tashkil etdi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilga nisbatan **83,8 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,5** foizni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari o'tgan yilga nisbatan **89,8 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **1,6** foizni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish korxonalari o'tgan yilga nisbatan **153,0 %** oshgan, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi **0,3** foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyul oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi

0,5 %

Tog' kon sanoati va
ochiq konlarni ishlash



97,6%

Qayta ishlash sanoati



1,6 %

Elektr, gaz, bug' bilan
ta'minlash va havoni
konditsiyalash



0,3 %

Suv bilan
ta'minlash, kanalizatsiy
a tizimi, chiqindilarni
utilitatsiya qilish





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **92,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,5 %** ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019 yilning yanvar-iyul oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **17787,6** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **97,6 %** ni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **295,2** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **1,6 %** ni tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **46,8** mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ni tashkil etdi.



Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan sanoatda yirik sanoat
korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarilishi

Ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari		O'l- chov birligi	2019 yil Yanvar-iyul oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar	2018 yil yavar- iyul oylarida ishlab chiqaril- gan mahsulotlar
Yengil avtomobillar (ixtisoslashtirilmagan)		dona	115570	77410
Paxtadan yigirilgan ip		tonna	13708,3	12262
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar		tonna	5091	3614,5
Tabiiy gaz		mln. kub. metr	24,3	20,2
O'simlik yog'i (tozalangan)		tonna	9195.6	7511.6
Alyuminiydan elektr o'ralgan sim, po'lat arqonlar, past kuchlanishdagi kabel, to'kilgan shnurlarva shu kabi buyumlar		tonna	8217,1	6407,8
Aroq – (spirt 100%)		ming litr	414,9	947

“UZ AUTO MOTORS” AJ nafaqat viloyatimiz balki Respublikamiz sanoatida ham muhim o‘rin egallaydi. Ayni paytda yurtimiz yo‘llari va ko‘plab davlatlar avtomagistrallarida kechayu kunduz harakatlanayotgan «O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan» belgisi ostidagi yuz minglab mashinalar iqtisodiyotimizning samaradorligi va yuksak salohiyatini namoyish etmoqda. “UZ AUTO MOTORS” AJ tomonidan 2019 yil yanvar-iyul oylarida 115570 dona avtomobil ishlab chiqarildi.

2019 Yanvar-iyul oylarida “UZ AUTO MOTORS” AJ tomonidan ishlab chiqarilgan avtomobillar soni (dona)




Ishlab chiqarilgan avtomobillar nomi	2019 yil yanvar-iyul oylarida	2018 yil yanvar-iyul oylarida
MATIZ	0	3571
SPARK	11784	12310
NEXIA T 250	43127	27788
COBALT	29990	15072
GENTRA	24383	13923
MALIBU	2707	1361
CAPTIVA	6	3385
TRACKER	3573	0
JAMI	115570	77410

Shahar va tumanlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Andijon viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Asaka tumani 62,1 % ulushini, Andijon shaharlari 15,1 %, Honobod shaharlari 3,5 %, Andijon tumani 2,8 %, Shahrixon 2,6 % tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar kesimida jami sanoat ishlab chiqarish hajmi

1-diagramma



Shu bilan birga eng kam ulush Bo'z (0,5 %), Ulug'nor (0,6 %) va Buloqboshi (0,8 %) tumanlariga to'g'ri keladi.


Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida, viloyatda 2019 yilning yanvar-iyul oylarida jami 18222,4 mlrd so'mga teng sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi. Shahar va tumanlar kesimida yuqori hajm Asaka tumanida 11320,5 mlrd so'mni, Andijon shahrida 2747,3 mlrd so'mni, Honobod shahrida 639,1 mlrd so'mni, Andijon tumanida esa 516,2 mlrd so'mni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora — tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi **14392,3** mlrd.so'mni tashkil etdi va ja'mi sanoatdagi ulushi esa **79 %** ga yetdi.


2019 yilning yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 14392,3 mlrd.so'm

2-diagramma




Yanvar-iyul oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, % da

3-diagramma



***2019 yilning yanvar-iyul oylarida shahar va tumanlar bo'yicha
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi***

4-diagramma




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 22,1 % tashkil etmoqda.

2019 yilning yanvar-iyul oylarida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %

7-diagramma




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Buloqboshi tumanida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Baliqchi tumanida (99,4 %) va Hojaobod tumanida (91,5 %) va SHahrixon tumanida (91,5 %) tashkil etdi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Asaka tumanida (2,5 %), Honobod shahri (15,3 %) kuzatildi.

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili Asaka tumanida 35330 ming so'm, Honabod shahrida 15272,6 ming so'm, Andijon shahrida 6310,9 ming so'm o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan 5920,7 ming so'm yuqoriligini ko'rsatmoqda.

2019 yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

6-diagramma



Andijon viloyat statistika boshqarmasining

Sanoat statistikasi bo'limi

Telefon: (+99871) 233-82-57